

Pudrat shartnomasi.
(Ob'ektlarni joriy ta'mirlashga doir)

2022 yil «19» sentyabr

№ 01

Qarshi shahri

Qarsi muhandislik-iqtisodiyot instituti nomidan (keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan) Nizomi asosida faoliyat ko'rsatuvchi Rektori O.SH. Bazarov bir **tomondan** "NADYOJSTROY" MChJ nomidan (keyingi o'rnlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan) Nizomi asosida faoliyat ko'rsatuvchi direktori **Sh.Berdikulov** ikkinchi **tomonda** **Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Energetika fakultetining binosini joriy ta'mirlash ob'ekti** bo'yicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

1-band. Ta'rif

1. Mazkur shartnomada qo'llaniladigan tushunchalar quyidagicha:

«Pudrat Shartnoma»: - Kelgusi o'rnlarda shartnoma deb yuritiladigan: Buyurtmachi va Pudratchi imzo chekadigan barcha kafolatlar, ilovalar, qurilish jarayonida tomonlar imzo chekishlari mumkin bo'lgan qo'shimchalar va o'zgartirishlar aks ettirilgan mazkur hujjat.

«Muvaqqat inshootlar»: "Pudratchi" tomonidan qurilish maydonida o'rnataladigan va qurilishni boshlash hamda yakunlash uchun zarur bo'lgan hamma turdag'i vaqtinchalik inshootlar.

«Qurilish maydoni»: Mazkur shartnoma doirasida "Buyurtmachi" tomonidan dalolatnoma asosida "Pudratchi"ga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasini o'rash, yoki bosh rejaga asosan o'rnataladigan boshqa belgilab qo'yiladi.

«Ishlar»:- "Pudratchi" tomonidan mazkur shartnoma shartlariga muvofiq bajarilishi lozim bo'lgan ishlari. Qurilish, montaj va sozlash, ishga tushirish, kamchiliklarni bartaraf etishlar shunga kiradi.

«Yashirin ishlari»: - keyingi ishlari va konstruksiylar bilan yashirib ketiladigan ishlari. Bu ishlarning sifati va aniqligini keyingi ishlari bajarib bo'lingandan keyin aniqlab bo'lmaydi.

«Ijro hujjatlari»: - ob'ekt qurilishi uchun ishchi chizmalari kompleksi, bajarilgan asli ishlarning shu chizmalarga muvofiq kelishi yoki ishlari bajarilishi uchun mas'ul bo'lgan shaxs tomonidan ularga kiritilgan o'zgartishlar haqidagi yozuvlar; ishlarni bajarishda qo'llaniladigan materiallar. Konstruksiylar va detallarning sifatini tasdiqlovchi sertifikatlar, texnik pasportlar va boshqa hujjatlar, yashirin ishlari guvohligi haqida hamda alohida mas'uliyatli konstruksiyalarni oraliqda qabul qilish haqidagi dalolatnomalar, montaj qilingan jixozlarning yakka tartibda sinab ko'rildigi haqidagi guvohnomalari, ish yuritish jurnallari hamda qurilish me'yori va qoidalarida ko'zda tutilgan boshqa hujjatlar.

«Ma'qullash»: - "Buyurtmachi" va "Pudratchi" tomonidan yozma ravishdagi tasdiqlash.

Shartnoma narxini bo'lish: Shartnoma bo'yicha ob'ektni umumiy qiymatini etaplarga bo'lish har bir bosqichning qiymatini aniq belgilanishi.

2-band. Shartnoma mazmuni

2. "Pudratchi" mazkur shartnoma shartlariga ko'ra Energetika fakultetining binosini joriy ta'mirlash ob'ekti loyihada ko'zda tutilgan ob'ektni foydalanishga topshirish bo'yicha qurilish ishlarni bajarish majburiyatini oladi, "Buyurtmachi" esa "Pudratchi"ga qurilish ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratib, ishlarni qabul qilish va mablag` bilan ta'minlovch, to'lovnini amalga oshirish majburiyatini oladi.

3-band. Shartnoma bo'yicha ishlarning qiymati.

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Pudratchi" tomonidan bajariladigan ishlari tanlov (tender) savdosi natijasida (Etender.uzex.uz – lot № 22110012147454) aniqlangan va tanlov va (tender) komissiyasining 2022 yil "14" sentyabrdagi 147454-son BAYONI bilan (barcha soliq va to'lovlar bilan QQSni inobatga oлган holda) joriy narxlarda 282 787 106 (ikki yuz sakson ikki million yeti yuz sakson yeti ming bir yuz olti) so'mni tashkil etadi.

3.2. Qurilish narxi mazkur shartnomaning 3 bandida qayd etilgan va muddati 10 kunni tashkil etadi va uzil-kesil hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi , quyidagi holatlardan tashqari:

-Ishlar hajmi "Buyurtmachi" tomonidan o'zgartirilganda.

-Ob'ektlar qurilishi 1 (bir) yildan ortiq bo'lganda.

3.3. Qurilish muddati bir yildan ortiq bolganda inshoot qiymati ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtiruvchi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.4. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgartirishlar "Buyurtmachi" bilan "Pudratchi" o'rtafiga shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

4-band. Pudratchining majburiyatları:

Mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun, "Pudratchi" 3-bandda ko'zda tutilgan narx hisobida quyidagi ishlarni bajaradi:

4.1. Barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga ilovaga muvofiq. Ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari, yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni "Buyurtmachi"ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

4.2. Qurilish maydoniga 1-ilovaga asosan bajarilishi lozim bo'lgan qurilish ishlari uchun bo'lgan qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiylar, asbob uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikalarini yetkazib berish ularni qabul qilish, tushirish, omborda saqlash.

4.3. O'z kuchlari va vositalari bilan qurilish maydoni hududida materiallarni saqlash va mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni ado etish uchun zarur bo'lgan barcha muvaqqat inshootlarni barpo etadi.

4.4. "Buyurtmachi"ni pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi manzili to'g'risida xabardor qilish.

4.5. Uning yordamchi "pudratchi"lari tomonidan mazkur shartnoma (kontrakt) bo'yicha tegishli ishlarning bajarilishi uchun buyurtmachi oldida javobgardir.

4.6. Ishlarni bajarish chog'ida texnika xavfsizligini ta'minlaydi, atrof muhitni, ko'kalamzorlar va yerlarni muxofaza etish bo'yicha qurilish maydonida zarur bo'lgan tadbirlar bajarilishini ta'minlaydi, hamda yoritgichlar o'rnatadi.

4.7. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilish haqidagi dalolatnomaga imzo chekilgandan keyin 3 (uch) kun muddat ichida o'ziga tegishli bo'lgan qurilish mashinalari va jihozlari, transport vositalari, asbob-uskunalar, qurilish matyeriallari, buyumlari, konstruksiyalarini qurilish maydoni tashqarisiga chiqaradi, qurilgan muvaqqat bino va inshootlarni buzib, tashib olib kyetadi.

4.8. Qurilish maydonining qo'riqlanishini amalga oshiradi. Qurilish maydoniga yetkazib berilgan, inshootga tegishli bo'lgan qurilish materiallari, uskunalar, yaroqli holatda saqlanishini, qo'riqlanishini to'liq, o'z hisobidan taminlaydi. Har bir yo'qolgan, singan, yaroqsiz holatga kelib qolgan maxsulotlar, inshootda bo'lgan hodisalar uchun javobgarligini o'z zimmasiga oladi.

4.9. Mazkur shartnomada barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.10. "Pudratchi" mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarni o'z kuchlari bilan, yordamchi pudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun "Buyurtmachi" oldida to'liq mulkiy javob beradi.

5-band. Buyurtmachining majburiyatları:

Mazkur shartnomani bajarish uchun buyurtmachi:

5.1. Barcha loyiha hujjatlarni ekspertiza ko'riganidan o'tkazib pudratchiga taqdim qilish.

5.2. Ishlar bajarilishi ustidan doimiy qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan "Pudratchi" tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rivoja etilishini nazorat qilish, "Pudratchi"dan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

5.3. "Pudratchi"ning barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

5.4. Moliyalashtirish – jadvaliga binoan "Pudratchi"ga shartnomaning 2-ilovasiga muvofiq mablag` bilan ta'minlovchi organ moliya boshqarmalari tomonidan mablag` ajratilgandan so'ng avans va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish.

5.5 Mazkur shartnoma imzolangan so'ng "Pudratchi"ga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etadi;

6- band. Ishlarni bajarish muddati:

6.1. Shartnoma :

- Milliy valyuta «so'mda» o'zaro hisob-kitob qilinganda - tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab;

- Keyinchalik so'mga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada «so'mda» o'zaro hisob-kitob qilingandan – shartnoma qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi.

6.2. Ishlar mazkur shartnoma bo'yicha, ishlarni olib borish «Kalendar jadvali»ga muvofiq, boshlanishi, yakunlanishi va olib borilishi kerak. (1-llova).

6.3. Qurilishning foydalanishga topshirish muddati ekspertiza xulosasi olingandan so'ng ob'ektning topshirish muddatiga aniqlik kiritiladi.

6.4. "Pudratchi" mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga va qurilish montaj ishlari rejasiga muvofiq qurilish tiklash ishlarni bajarishga kirishadi.

6.5. Shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabr etib belgilandi.

7- band. To'lovlar va hisob-kitoblar.

7.1. «Buyurtmachi» shartnoma tuzilgan inshootda bajarilgan ishlarni uchun «Pudratchi»ga to'lovn: Moliya organi tomonidan tasdiqlangan va ro'yxatdan o'tkazilgan harajatlar smetasi asosida moliyalashtirishni Viloyat g'aznachilik boshqarmasi orqali amalga oshiradi.

7.2. Buyurtmachi "Pudratchi"ga ajratilgan mablag` hisobidan 30 foizi miqdorida avans o'tkazadi.

7.3. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlarni sifati tekshirilgandan keyin, proporsional ushlab qolgan xolda ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvaliga muvofiq ob'ektning umumiyl shartnomaviy joriy qiymatining 70 foiz miqdorida amalga oshiriladi.

7.4. "Pudratchi" mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga topshirilgunga qadar unga egalik huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ektning "Buyurtmachi"ga topshiriladigan vaqtga qadar, nogohn yo'qotilish va shikastlanish tavakkali "Pudratchi"ning zimmasida bo'ladi, bartaraf etishning iloji bo'lmaydigan holatlar (fors-major) bundan mustasno.

7.5. Tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 3 kun mobaynida bajarmagan taqdirda, ikkala tomon bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan

tartibda yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda «Buyurtmachi» «Pudratchi» tomonidan bajarilgan ishlar uchun xaq to`lashdan, «Pudratchi» bajarilmagan ishlar uchun to`langan to`lovn «Buyurtmachi»ga qaytarib to`lab berishdan ozod qilinmaydi.

7.6. Mablag`ni tejash deb, tender savdosi asosida belgilangan shartnomaviy narxiga qarshi “Buyurtmachi” tasdiqlagan ‘Pudratchi’ xarajatining o`zaro farqi tushuniladi.

7.7. Ayrim xollarda, agar “Pudratchi”ning harajati hisobga olingan ishlarning aniqlangan narxidan kam bo`lganda, “Pudratchi” shartnomada ko`zda tutilgan narx bo`yicha ishlar uchun haq olish huquqini o`zida saqlab qoladi, agarda “Buyurtmachi” “Pudratchi”ning mablag`larini tejab qolishda bajarilgan ishlarning hajmi va sifatiga ta`sir etganini isbotlay olmasa.

8-Band. Ishlarni olib borish

8.1. “Buyurtmachi” qurilish maydoniga o`z vakili – texnik auditorni tayinlaydi. U “Buyurtmachi” nomidan “Pudratchi” bilan birgalikda ishlarni hajmi va sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, bajarilgan ishlar dalolatnomasini rasmiylashtiradi shuningdek, “Pudratchi” foydalanayotgan matyerial va asbob-uskunalarni shartnoma va loyiha hujjatlari shartlariga muvofiqligini tekshirib boradi. Texnik nazoratchi auditor, qurilish ishlari olib borilayotgan inshootda, chorak yakuni bilan hech bir to`siksiz mustaqil bajarilgan ishlar hajmini umumiy nazorat o`chovidan o`tkazadi. Texnik nazorat o`tkazish o`chovlarini bajarilish yuzasidan mas`ul va javobgar shaxs hisoblanadi.

8.2. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to`siksiz tanishish huquqiga egadir.

8.3. “Pudratchi” texnik auditorni ishlashi uchun joy bilan ta`minlaydi.

8.4. Texnik auditor “Pudratchi” tomonidan qurilish maydonida bajariladigan ishlarni amalga oshirish chog`ida paydo bo`luvchi masalalarni hal qilish bo`yicha yig`ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

8.5. “Pudratchi” ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning 6 bandida ko`rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o`z rejasи va jadvaliga binoan ob`ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

8.6. “Pudratchi” ob`ektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

8.7. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta`minlash “Pudratchi”ning vazifasi hisoblanadi.

8.8. “Buyurtmachi” qurilish maydonini berish haqidagi dalolatnoma bilan birga ortiqcha tuproq va qurilish chiqindilarini to`kish uchun va yetishmaydigan tuproq qazishga karyer uchun joy ajratish haqida xujjatlarni “Pudratchi”ga topshiradi.

8.9. “Buyurtmachi” qurilish maydonini “Pudratchi”ga topshirish haqidagi dalolatnomaga imzo chekilgan sanadan e’tiboran 3 kun muddat ichida qurilish maydonini belgilash va ob`ektlarni bog`lash bo`yicha ishlarni bajarish uchun geodeziya nuqtalarini, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini “Pudratchi”ga taqdim etadi.

8.10. “Pudratchi” ishlarni bajarish jadvaliga asosan qurilish uchun geodeziya o`lhash asosini yaratib beradi. Geodeziya o`lhash asosining tarkibi va hajmi qurilish bo`yicha me`yoriy hujjatlarga muvofiq kelishi kerak. U ob`ektni boshlang`ich nuqtalarga, chiziqlarga va darajalarga nisbatan to`g`riliги va lozim darajadaligi uchun, balandlik o`lchamlari, satxlari joylashuvining to`g`riliги va reja o`qlarini va muvofiqligi uchun javobgardir. Agar ish bajarish jarayonida olib borilgan o`lchov va geodeziya ishlarida xatolik aniqlansa “Pudratchi” o`z xisobidan unga tegishli tuzatish kiritadi. “Pudratchi” joylashuv jadvalini, joylashuv kataloglarini va geodeziya o`lhash ishlarini o`lhash chog`ida o`rnatilgan geodeziya belgilarini balandligini qurilish davrida o`zida saqlaydi va qurilish tugagandan so`ng ularni dalolatnomaga bo`yicha “Buyurtmachi”ga topshiradi.

8.11. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davri uchun qurilgan muvaqqat kommunikatsiya bog`lamalari va yangi qurilgan kommunikatsiyalarni nuqtalarga ulashni “Pudratchi” amalga oshiradi.

8.12. “Pudratchi” qurilish uchun qo`llaydigan qurilish materiallari, jihozlarini va butlovchi buyumlarni konstruksiya va tizimlar sifatining loyiha hujjatida ko`rsatilgan xususiyatlarga, davlat andozasiga, texnik shartlarga mos kelishini va texnik pasportga, sertifikatga yoki ularning sifatiga guvohlik beruvchi boshqa hujjatlarga ega bo`lishni kafolatlaydi.

8.13. “Pudratchi” alohida mas`uliyatli konstruksiyalar va yashirin ishlarni ularning tayyorligiga qarab, qabul boshlanishidan ikki kun oldin “Buyurtmachi”ga yozma ravishda xabar beradi.

Qabul qilinadigan konstruksiya va ishlarning tayyorligi, mas`uliyatli konstruksiyalarni oraliqda qabul qilish dalolatnomasiga va yashirin ishlar guvohligini beruvchi dalolatnomaga “Buyurtmachi” va “Pudratchi” tomonlaridan chekiladigan imzo bilan tasdiqlanadi.

“Pudratchi” keyingi ishlarni bajarishga faqatgina “Buyurtmachi”ning ishlarni ado etish jurnaliga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan so`nggina kirishadi.

8.14. Agarda “Buyurtmachi” tomonidan ishlar sifatsiz bajarilgani aniqlansa, “Pudratchi” o`z kuchi bilan va qurilishning umumiy qiymatini ko`paytirmsadan, belgilangan muddatda bu ishlarni tegishli sifatini ta`minlagan holda qaytadan bajarishga majbur.

Agar “Pudratchi” qisqa (texnik imkoniyat) muddatda sifatsiz ishni tiklay olmasa, ‘Buyurtmachi’ “Pudratchi” tomonidan sifatsiz bajarilgan ishni tegishli haq to`lash evaziga tiklash uchun boshqa shaxslarni jaib etishga haqli. Bu ishlarni boshqa shaxslar tomonidan tuzatish bilan bog`liq harajatlar “Pudratchi”ning zimmasiga yuklanadi.

8.15. "Pudratchi" qurilish maydonini va unga tutashgan ko`cha va yo`lakalarni tozalash va ozodaligini ta'minlash, maydondan qurilish davrida "Buyurtmachi" ko`rsatgan joyga qurilish chiqindilarini chiqarib tashlash ishlarni amalga oshiradi.

8.16. "Pudratchi" ish boshlangan vaqtdan boshlab to tugagunga qadar butun ishlarning borishi aks ettiriladigan ish yuritish jurnalini tutadi. Shuningdek unda "Buyurtmachi" va "Pudratchi"ning o`zaro munosabatlarda ahamiyati bo`lgan ishlarning borishi bilan bog`liq barcha faktlar va holatlar o`z aksini topadi (ishning boshlanish sanasi, olib borilgan sinovlar, materiallarni vaqtida yetkazib bermaslik bilan bog`liq uzilishlar, qurilish texnikalarining safdan chiqishi, shuningdek qurilishni uzil-kesil tugatish muddatiga ta`sir ko`rsatuvchi nimaiki sodir bo`lsa, hammasi haqida).

Agar "Buyurtmachi" ishlarni borishidan, sifatidan yoki "Pudratchi"ning yozuvlaridan qoniqmasa, u holda o`z mulohazalarini ish yuritish jurnalida bayon etadi.

"Pudratchi" daftarda "Buyurtmachi" tomonidan asosli ravishda ko`rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora tadbirlarini ko`rish majburiyatini o`z zimmasiga oladi.

9-band. Mehnatni muxofaza etish.

9.1. "Pudratchi" qurilish boshlanishidan to tugaguncha va 'Buyurtmachi" tomonidan qurilishi yakunlangan ob`ekt qabul qilingunga qadar, devor bilan o`ralgan qurilish maydoni hududidagi materiallar, jihozlar, qurilish texnikalari va boshqa mulklarning tegishlicha muhofaza etilishini ta'minlaydi.

9.2. Ob`ekt qabul qilingandan keyin qurilgan binolar va inshootlar, shuningdek matyeriallar, jixozlar va boshka mulklarning saqlanishi uchun javobgarlik Buyurtmachi zimmasiga tushadi.

10-band. Bartaraf etib bo`lmaydigan kuch (fors – major) xolatlari.

10.1. Agar tomonlar majburiyatlarining qisman yoki to`la ijob etilmay qolishi tabiiy xodisalar, harbiy harakatlar, yuqumli kasalliklar tarqalgan va bartaraf etib bo`lmaydigan boshqa kuchlar sababli sodir bo`lgan bo`lsa, hamda bu holat mazkur shartnoma ijrosiga bevosita ta`sir ko`rsatgan bo`lsa, tomonlar mazkur shartnoma bo`yicha majburiyatlarining qisman yoki to`la ijob etilmay qolgani uchun javobgarlikdan ozod bo`ladilar.

Mazkur shartnoma bo`yicha majburiyatlarining ijob muddati bartaraf etib bo`lmaydigan vaziyat, shuningdek shu vaziyat keltirib chiqargan oqibat hukm surgan vaqtga mos ravishda orqaga suriladi.

10.2. Agar bartaraf etib bo`lmaydigan kuch vaziyati yoki uning oqibatlari 1 oydan ortiq vaqtga cho`ziladigan bo`lsa, "Pudratchi" va "Buyurtmachi" qurilishi davom ettirish yoki noma'lum vaqtga to`xtatish (konsyervatsiya) uchun chora-tadbirlar ko`rishni muhokama etadilar va shuningdek alohida holatlar asosli bo`lsa, qo'shimcha shartnoma tuzilib inshootni qurilish muddati o`zgartiriladi.

Agar tomonlar ikki oy mobaynida bir to`xtamga kela olmasalar, tomonlarning har qaysisi shartnomani bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

11-band. Qurilishi tugallangan ob`ektni qabul qilib olish.

11.1. Qurilishi tugallangan ob`ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo`lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafdan bajarilgandan keyin Davlat qabul komissiyasining inshootni foydalishiga qabul qilinganligi to`g`risida tuzilgan "Davlat qabul hay`ati dalolatnomasi"ga va QMI to`liq bajarilganini tasdiqlovchi hisob-faktura (F3) shakl hisobotiga asosan amalga oshiriladi.

11.2. Ob`ekt «Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchi»ning inshootni tayyorgarligi to`g`risidagi yozma bildirishnomasini olgandan boshlab 5 (besh) kun ichida SHNQ tartib-taomillariga mosligini tekshirib talablariga javob berishiga ishonch hosil qilgach qabul qiladi.

11.3. 'Buyurtmachi" ob`ektni qabul qilgan vaqtdan boshlab ob`ekt buyurtmachining mulkiga aylanadi.

12-band. Kafolatlar.

12.1. "Pudratchi" quydagilarni kafolatlaydi:

- mazkur shartnomada belgilangan barcha ishlarni to`la xajmda va belgilangan muddatda bajarishni;
- barcha ishlarni sifatini loyiha hujjatlari va amaldagi me`yorlarga muvofiqligini;
- ishlarni qabul qilish chog`ida va ob`ektni kafolatlari ishlatalish davrida aniqlangan kamchilik va nuqsonlarni o`z vaqtida bartaraf etishni;
- ob`ektdan foydalish chog`ida muhandislik tizimi va jihozlarining me`yorida ishlashini.

12.2. Loyiha hujjatlariha hamda qurilish me`yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

12.3. O`zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlariha ko`rsatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini;

12.4. Ob`ektdan foydadani ganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

12.5. Agar "Buyurtmachi"ning xarajatlari miqdori "Pudratchi"ga to`lanadigan to`lov miqdoridan ortib ketsa, "Pudratchi" "Buyurtmachi"ning hisobiga muvofiq, amaldagi xarajatlар farqini to`laydi.

12.6. Agar "Pudratchi" topilgan nuqson va kamchiliklarga dalolatnoma tuzilishidan yoki unga imzo chekishdan bosh tortsa, "Buyurtmachi" ularni tasdiqlatish uchun kamchilik va nuqsonlar, hamda ularning tavsifi bo'yicha tegishli dalolatnoma tuzadigan malakali ekspertlarni tayinlaydi. Ammo tomonlarning shu masala yuzasidan Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudiga murojaat qilish huquqlarini istisno etmaydi.

13-band. Litsenziyalar (sertifikatlar).

13.1. Tomonlarga o'zları yetkazib beradigan hajmda ishlarni bajarish va ob'ektni ishlatish uchun zarur bo'lgan materiallar, jixozlar, butlovchi buyumlarga litsenziya (sertifikat)lar olish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni zimmalariga olish majburiyati yuklatiladi.

14-band. Sharhnomani bekor qilish.

14. "Buyurtmachi", "Pudratchi"dan quyidagi hollarda sharhnomani bekor qilinishini talab etishga haqli:

14.1. "Pudratchi" qurilishni "Buyurtmachi"ga bog'liq bo'Imagan sabablarga ko'ra bir oydan ortiq kechiktirganda;

14.2. Ishlarni tugatishning belgilangan muddati "Pudratchi"ning aybi bilan 10 kundan ortiq muddatga kechiktirgan holda, "Pudratchi" tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda.

14.3. "Pudratchi" tomonidan loyiada ko'zda tutilgan sharhnomaning sharti buzilganda va oqibatda ish sifatining pasayib ketishiga olib kelganda;

14.4. "Pudratchi"ning qurilish faoliyati litsenziyasi bekor qilinganda, ma'muriy va davlat organlari tomonidan ish yuritishdan mahrum etuvchi amaldagi qonunchilikka asoslangan hujjatlar doirasida, boshqa qonun hujjatlar mavjud bo'lgan hollarda.

14.5. Mazkur sharhnomada ko'zda tutilgan penya (jarima) sanksiyasini "Pudratchi" to'lashdan bosh tortsa.

14.6. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha sharhnomaning bekor qilishini talab qilish huquqiga ega.

14.7. "Pudratchi" quyidagi hollarda sharhnomani bekor qilinishini talab qilishga haqli:

14.8. "Buyurtmachi" tomonidan "Pudratchi"ga bog'liq bo'Imagan sabablarga ko'ra 1 oydan ortiq muddatda qurilish - montaj ishlari bajarilishi to'xtatib qo'yilganda;

14.9. "Buyurtmachi" tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda.

14.10. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha sharhnomaning bekor qilishni talab qilish huquqiga ega.

14.11. "Buyurtmachi" va "Pudratchi" bilan birgalikda qabul qilingan qarori bo'yicha sharhnomani bekor qilinganda, tugallanmay qolgan qurilish ob'ekti 3 kun muddatda "Buyurtmachi"ga topshiriladi. "Buyurtmachi" bajarilgan ishlar qiymatini topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan bajarilmagan ishlar uchun to'langan to'lojni "Pudratchi" "Buyurtmachi"ga qaytyarib to'laydi.

14.12. Mazkur sharhnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur band qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnomasi yuboradi, Pudrat sharhnomasi mazkur sharhnomaning 14.16 bandiga ko'ra bekor qilinadi.

14.13. Sharhnomani bekor qilinganda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni shu jumladan boy byerilgan foydani to'laydi.

14.14. Sharhnomani bekor qilish haqidagi tomonlarning kelishivi ushbu sharhnomani tuzish kabi rasmyylashtirilgan holda amalga oshiriladi.

14.16. Tomonlar sharhnomani bekor qilish haqidagi ogohlantirish yuborilgach, ogohlantirishda ko'rsatilgan kamchiliklar 3(uch) kun muddat ichida ixtiyoriy bartaraf etilmasa mazkur sharhnomani bir tomonlama bekor qilishga asos hisoblanadi. Qonunchilikda va sharhnomada ko'zda tutilmagan hollar bundan mustasno.

15 band. Tomonlarning mulkiy javobgarligi .

15.1. Tomonlardan biri sharhnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur band qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni qoplaydi. (Mablag' bilan ta'minlovchi organ o'z vaqtida mablag'ni moliyalashtirmaganligi uchun "Buyurtmachi" javob byermaydi).

- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini sharhnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur sharhnomada nazarda tutilgan tartibda boshqa javobgarlikga tortiladi.

15.2. Mazkur sharhnomaga tegishli ilovalarda korsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi va sharhnomada belgilangan boshqa majburiyatlarini buzganligi uchun: (o'ziga bog'liq bo'Imagan hollardan tashqari).

"Buyurtmachi":

- "Pudratchi"ga qurilish-montaj ishlari uchun to'lojni asossiz ravishda kechiktirilgan har-bir kun uchun majburiyatlarining bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiyatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

- Penya to'lanishi "Buyurtmachi"ning sharhnomani bekor qilishga qoplashdan ozod qilmaydi.

- Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlari hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun "Buyurtmachi" "Pudratchi"ga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi (Bosh tortish asosli bo'lган hollar bundan mustasno).

"Pudratchi":

- "Pudratchi" qurilish ishlarni bajarish «Kalendar jadvali»ga ko'ra yoki ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish, foydalanishga topshirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi hamda QMIni asossiz to'xtatib qo'yanligi uchun "Buyurtmachi"ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, to'lanadigan penya bajarilmagan ishlari yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

- "Buyurtmachi" tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar bartaraf etilmaganligi uchun "Pudratchi" "Buyurtmachi"ga muddati o'tkazib yuborilgan har-bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlari qiymatining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyo so'mmasi sifatsiz bajarilgan ishlari qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

- Penya to'lash "Pudratchi"ning ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

15.3. Agar bajarilgan ishlari sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlariga va qoidalariiga, ish xujjaliga muvofiq bo'lmasa, "Buyurtmachi", "Qashqadaro" viloyat Qurilish sohasida hududi nazorat inspeksiysi"ning xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun xaq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek "Pudratchi"dan sifati zarur darajada bo'lмаган ishlari qiymatining 15 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

15.4. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur bandda nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomoniga qilingan harajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalangan penya bilan qoplanmagan zararni qoplaydi.

15.5. Iqtisodiy sud orqali undirilgan penya summasi "Pudratchi" tashkilot hisob raqamida mablag' bo'lмаган taqdirda mol-mulki hisobidan undirib olinadi.

15.5. Muddat o'tkazib yuborilganligi, shartnomaning bekor qilingayligi yoki, majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarning ushu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

16. band. Nizolarni hal etish tartibi.

16.1. Shartnomani ijro etmaganligi yoki etarli darajada bajarmaganligi uchun, javobgarlik agar shartnomada o'zgacha ko'zda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuniga, hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga asosan javobgarlik choralari qo'llaniladi.

16.2. Lavozimli shaxs tomonidan shartnoma majburiyatlarini buzganligi uchun javobgarlik chorasi O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 35-bandsi bilan belgilanadi.

16.3. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladi gani nizoli masalalarini tomonlar hal etaolmasa paydo bo'lган nizolarni qonun hujjalarda belgilangan tartibda Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudiga da've ariza (ariza) kiritish tartibida ko'rib chiqiladi.

17-band. Alovida shartlar

17.1. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin tomonlar o'rtasidagi mazkur shartnomaga daxldor oldingi barcha yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, kelishuvlar o'z kuchini yo'qotadi..

17.2. "Pudratchi", "Buyurtmachi"ning yozma ruxsatsiz ob'ektni yoki uning alovida bir qismini ko'rish uchun loyiha hujjalarni uchinchi shaxsga sotish yoki o'tkazish huquqiga ega emas. Bundan yordamchi pudratchilar mustasno.

17.3. Mazkur shartnomaga keyinchalik tomonlarning kelishuviga ko'ra kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma ravishda rasmiylashtirilib, tomonlar imzo chekkan bo'lsalar haqiqiy deb hisoblanadi.

17.4. "Buyurtmachi" va "Pudratchi" o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiha olib keladigan har qanday ahndlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar, o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi shart.

17.5. Agar "Pudratchi" shartnoma bo'yicha ishlari yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda "Buyurtmachi", "Pudratchi" qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha, bajarilgan ishlari uchun to'lanish lozim bo'lган to'lovnini to'lashni kechiktirishiga haqlidir.

17.6. Barcha elektr asboblari, uskunalar, jihozlar, kabel mahsulotlari, nasoslar va boshqa jixozlarning sifat syertifikatlari hamda texnik pasportlari bo'lishi shart.

17.7. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjalari normalari qo'llaniladi.



17.8. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lган 2 nusxada tuzildi.

18-band. Shartnomaning huquqiy ekspertizasi.

18.1. Shartnomaning mazmuni uni tuzishga tayyorlash loyihasini yuridik xizmat sub'ektlari yoki jalg etilgan advokatlar tomonidan qonunchilikka muvofiq kelishi tekshirilgan bo'lishi darkor. Ularnig imzosisiz yoki xulosasisiz shartnoma tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

18.2. Shartnomani tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilish, shuningdek keltirilgan zararni qoplash chog'ida tomonlar o'rtaida vujudga keladigan bahslar qonunchilikda belgilangan tartibda Qarshi tumanlararo iqtisodiy sud tomonidan yoki tomonlarning kelishuviga binoan hakamlik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

19-band. Tomonlarning rekvizitlari:

"Buyutmachi"	"Pudratchi"
Qarsi muhandislik-iqtisodiyot instituti	"NADYOJSTROY" MChJ
ҚАРШИ МУҲАНДИСЛИК ИҚТИСОДИЁТ ИНСТИТУТИ ҚАРШИ Ш. МУСТАКАММАЛ 225-УЙ СТИР: 200666914 ОКОНХ: 92110 Ш.Х.Р: 400910860104017094100079002 МОЛДА ВАЗИРЛИГИ ГАЗНАМИЛИГИ Х/Р: 23402000300100001010 МАРКАЗИЙ БАНК ТОШКЕНТ Ш. БОШ БОШҚАРМАСИ МФО: 00014 СТИР: 201122919	Manzil: Chiroqchi tumani Naymansaroy qishlog'i tel. 99 343-99-88 X/r: 20208000905065658001
Rektor: 	Chiroqchi xalq banki MFO 00689 INN 306319260
O.Sh.Bazarov	Direktor  Sh.Berdikulov



Qarsi muhandislik-iqtisodiyot instituti bilan "NADYOJSTROY" MChJ o`rtasida ikkinchi **Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Energetika fakultetining binosini joriy ta'mirlash ob'ekti** buyicha **2022 yil 19 sentyabr №1**-sonli tuzilayotgan shartnoma, umumiy qiymati **282 787 106 (ikki yuz sakson ikki million yeti yuz sakson yeti ming bir yuz olti) so`m (QQS bilan)** qilib belgilangan shartnoma loyihasi yuzasidan,

Y U R I D I K X U L O S A S I

Men, ushbu shartnoma loyihasini amaldagi O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksini "Xo`jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to`g`risida"gi qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida huquqiy ekspertiza qilib, ushbu xo`jalik yurituvchi sub`ekt davlat ro`yxatidan o`tganligini va mazkur shartnomani imzolash huquqiga ega ekanligini va shartnoma loyihasining qonunchilik hujjatlariga mos kelishliligini aniqladim.

Shu munosabat bilan ushbu shartnomani imzolasa bo`ladi deb hisoblayman.

Huquqshunos : _____

M.O`.

"____" sentyabr 2022 yil



180108, Qarshi shahar, Нурбог ko'chasi, 230^й-уу 7-хона. Tel.: + (99897)312 63 63

19 сентябрь 2022 йил

Қарши мухандислик иқтисодиёт институти
 билан "NADYOJSTROY" МЧЖ ўртасидаги
 2022 йил 19 сентябрь кунги №01-сонли
 шартнома юзасидан

ХУҚУҚИЙ ХУЛОСА

Мен М.Холмирзаев Қарши шаҳар "Насаф хукуқ маслаҳатчиси" адвокатлар
 ҳайъатида № KS000040-сонли лицензия асосида фаолият кўрсатаман.

Шартномага кўра, Қарши мухандислик иқтисодиёт институти билан
 "NADYOJSTROY" МЧЖ ўртасидаги 2022 йил 19 сентябрь кунги №01-сонли
 шартномаси билан танишиб қўйидагиларни

АНИҚЛАДИМ:

Ушбу шартнома бўйича "NADYOJSTROY" МЧЖ ўртасидаги шартномаси
 билан танишиб Қарши мухандислик иқтисодиёт институтининг буортмасига
 мувофик энергетика факультетининг биносини жорий таъмирлаш ишларини амалга
 ошириши буортмачи тўловни амалга ошириши назарда тутилган. Шартнома
 киймати 282.787.106 сўмни ташкил қиласди.

Карши мухандислик иқтисодиёт институти "бажарувчи"дан спецификация
 асосида бажарилган ишларни қабул қилиб олишга ва тўловларни амалга оширишга
 келиншилган бўлиб, шартнома шартлари, жумладан, мажбуриятларни бажариш
 тартиби ва муддатлари, тўлов муддатлари, жавобгарлик масалалари, тарафларниң
 хукуқ ва мажбуриятлари, низоларни ҳал қилиш тартиби, қўшимча ва
 ўзгартиришлар киритиш тартиби ва бошқа шартлар Ўзбекистон Республикаси
 Фуқоролик кодеси, Ўзбекистон Республикасининг 29 август 1998 йилдаги «Хўжалик
 юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий-хукуқий базаси тўғрисида»ги
 конун нормалари талаблари асосида тузилган.

Юқоридагиларга кўра, Ўзбекистон Республикаси ФКнинг 353,357 ва 386
 моддаларига асосланниб

ХУЛОСА ҚИЛАМАН:

Қарши мухандислик иқтисодиёт институти билан "NADYOJSTROY" МЧЖ
 ўртасидаги 2022 йил 19 сентябрь кунги №01-сонли шартномаси Ўзбекистон
 Республикаси конун талаблариңа мос равишда тузилган деб хисоблайман.

Қарши шаҳар "Насаф хукуқ маслаҳатчиси"
 адвокатлар ҳайъати адвокати:



М.Холмирзаев

М.Холмирзаев.

«ТАСДИКЛАЙМАН»

Қарши мұхандислик-иктисодиёт
институти проректори комиссия
раисы

С.Ф.Маматов

Карий шахри

«15». 09 2022 йил

№ 7

Қарши мұхандислик-иктисодиёт институтида текущему ремонттерритории факультета
энергетики каршинского инженерно-экономического институт ишларни бажаришни ташкил қилиш
комиссиясининг

ТАНЛОВ КОНКУРС БАЁНИ:

Комиссия рaiси Молия иктисод
ишлари бўйича проректори

С.Маматов

АЪЗОЛАРИ:

ТФ ва ХБ бошлиги

А.Абдиназаров

Бош ҳисобчи

Ф.Набиев

Бош мұхандис

М.Рузиев

ТФ ва ХБ мұхандис

Д.Қодиров

Кун тартибида куриладиган масала:

Текущему ремонт территории факультета энергетики каршинского инженерно-экономического
институт учун 2022 йил сентябр ойлари мчж “NADYOJSTROY” МЧЖ фирмаси билан шартнома
қилиш ва шартномани тасдиқлаш түғрисида.

Комиссия танлов конкурсга қатнашган вакилларнинг таклифларини кўриб чиқиб, Текущему
ремонт территории факультета энергетики каршинского инженерно-экономического институт бўйича З
та хусусий корхона қатнашаётгандигини эълон қилди. Улар қуидагича:

Танлов конкурс бўйича 2022 йил 14 сентябр кунида лот № 147454. сонли протокол эълон
кўйилгандан кейин 3 та ташкилот ўзини таклифлари билан қатнашди ва энг юқори балл мчж
“NADYOJSTROY” МЧЖ олди ва 2 кун мухокамага кўйилди ҳамда бошқа эътиrozлар
бўлмагандан кейин “NADYOJSTROY” МЧЖ мчж билан шартнома тузилди.

ТАНЛОВ КОНКУРС КОМИССИЯ ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. NADYOJSTROY “МЧЖ фирмаси” ғолиб деб топилсин.

2. NADYOJSTROY “МЧЖ” кохонаси томонидан тавсия этилган барча Текущему ремонт
территории факультета энергетики каршинского инженерно-экономического институт шартнома
ишларни бажарилишини назоратга олиш Хужалик булими бошлиги А.Абдиназаровга, бош
мұхандис М.Рузиевга топширилсин.

3. Ушбу баённома қарорини давлат харидлари порталига жойлаштирилишини назорат
қилиш бош ҳисобчи Ф.Набиевга юклатилсин.

АЪЗОЛАРИ:

А.Абдиназаров

Г.Набиев

М.Рузиев

Д.Қодиров